



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



TA'LIM VATARBIYA NAZARYASI METODIKASI.

Axmatkulov Umidjon Maxmudjonovich

Qo'qon davlat pedagogika insituti 1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim jarayonidagi va metodikasi haqida qisqacha bayon qilingan*

Kalit so'zlar: *yosh avlodga, ezgu fazilatlar, maqsad, vazifalarni*

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek “Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, – degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz. Birinchidan, yosh avlodga bog'cha, maktab va kollej, texnikumlar hamda oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz. Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz. Hozirgi davrda metodika fani pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ularda yangicha tafakkurni tarkib toptirish, umumiy kasb tayyorgarligikni ta'minlashga yo'naltirilgan. Metodika fanlaridan ma'lumotga ega har bir talabgor, qaysi fan mutaxassisi bo'lib yetishishidan qat'iy nazar o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishi uchun zarur bo'lgan pedagogik bilimlar va ko'nikmalarning umumiy hajmini, umumkasbiy va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talablarini bilishlari lozim. Metodika fani talabgorning umumpedagogik bilim darajasini, pedagogik merosimizga hurmat bilan munosabatda bo'lishini aniqlaydi. Ta'lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti, tarbiya va ta'lim, uning rivojlanish jarayoni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va har bir tarixiy bosqichda ilmiy bilimlar darajasi bilan bog'liqligi to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi. Bunda maorif va pedagogikaning ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob berganligi, ilmiy taraqqiyot bir butun tarbiya nazariyasi va amaliyot ekani hisobga olingan. Ta'lim amaliyoti, shuningdek, ta'limdagi yutuqlarning muhimligi ham nazarda tutiladi. U yoki bu pedagogik konsepsiyalar, ta'limotlarni tavsiflaganda shu ta'limotlar ijodkorining hayoti va faoliyatidagi eng muhim voqealarni asos qilib olish nazarda tutilgan. “Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)” fanining maqsad va vazifalari: –Talabgorlarning hozirgi zamon metodika fanining nazariy asoslari bilan qurollantirish; – pedagogik tafakkurni shakllantirish negizini yaratish; – pedagogik fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish; – “Ta'limning metodik qonuniyatlari hamda tamoyillari”ga mos holda tegishli qarorlar qabul qilish; – Hozirgi zamon ta'lim (pedagogik va axborot) texnologiyalarini bilish hamda ularni



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



amaliyotda qo‘llay olishdan iboratdir. “Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)” fanidan bilim va ko‘nikmalarga qo‘yiladigan talablar “Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)” o‘quv fanini o‘rganish jarayonida quyidagi pedagogik tushunchalarni bilish va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarur: – ta‘lim-tarbiya ishlarini mustaqillik g‘oyalariidan foydalanilgan holda pedagogik qonuniyatlar va tamoyillarga uyg‘un holda o‘tkazish; – pedagogik faoliyatni rejalashtirishda, yaqin, o‘rta davrni va istiqbolni ko‘zlab maqsad, vazifalarni belgilash; – amaliyotda o‘qitish hamda ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy shakllarini qo‘llash; – amaliyotda o‘qitish va ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo‘llash, ma‘lum vaziyatlarda ulardan to‘g‘ri foydalana olish; – ta‘lim jarayonini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari shuningdek, Sharq va G‘arbning ilg‘or pedagogik tajribalaridan foydalangan holda tashkil etish; – o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni to‘g‘ri bajarilishini tashkil etish; – shaxs faoliyati va xulqini rag‘batlantirib borish; – pedagogik vaziyatlar, ta‘lim va tarbiya natijalarini tahlil eta olish, jamoani o‘rganish; o‘zlashtirmaslik sabablarini, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun samarali tadbirlarni belgilash; – o‘z bilimini oshirib borish, amaliyotda pedagogika fanidagi yutuqlar, ilg‘or tajribalardan foydalanish, qulay pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish, pedagogik faoliyatda yuzakichilik va bir qolipda ishlashga yo‘l qo‘ymay, ishga ijobiy, tolerantlik va improvizatsiya munosabatni namoyon etish; – guruh rahbari va tarbiyachi-murabbiy vazifalarining samaradorligiga erishish, tashqi ta‘lim, otaonalar, mahalla, jamoatchilik bilan o‘z-o‘zini boshqarishni tashkil etish. Talabgor “Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)” fanini o‘rganish davomida zamonaviy ta‘lim texnologiyasi kompyuter, axborot texnologiyasi, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, pedagogik mazmundagi amaliy, ilmiy tadqiqot topshiriqlarini bajara olishini namoyon eta olishlari zarur. O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim to‘g‘risida Qonun asosida metodika fani va uning jamiyatda tutgan o‘rni haqida – Davlat va jamiyat-davlat va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiradi hamda fuqarolarning o‘rta umumiy ta‘lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi, oliy ta‘lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim turlarini olish huquqini kafolatlaydi; – uzluksiz ta‘lim va uning faoliyat ko‘rsatish prinsiplari ta‘limning ustuvorligi, ta‘limning demokratlashuvi, ta‘limning ijtimoiylashuvi, ta‘limning milliy yo‘naltirilganligi, ta‘lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi, har tomonlama komil insonni shakllantirishga yo‘naltirilganligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash; – uzluksiz ta‘lim tizimi va turlari; maktabgacha ta‘lim, umumiy ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi, oliy ta‘lim, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta‘lim; – fan-tabiat va jamiyat taraqqiyoti haqidagi yangi fundamental va tadqiqiy bilimlarni shakllantirish, yuqori malakali ilmiy va pedagogik



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



kadrlar tayyorlash sohasi sifatida; – ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi. Pedagoglik kasbi. Pedagoglik kasbining paydo bo'lishi va ravnaq topishi. Sharq mutafakkirlari (Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Alisher Navoiy va boshqalar) va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida. O'qituvchimurabbiyning o'ziga xos fazilatlari ilmiy dunyoqarashi va insonparvarligi. Uning ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazari, barkamol avlod tarbiyasi uchun o'qituvchimurabbiyning jamiyat oldidagi mas'uliyati, uning kasbiy 7 bilimlari va ko'nikmalari. Pedagog iste'dodi va qobiliyati. O'qituvchimurabbiyning pedagoglik axloq-odobi va nazokati, uning o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblari bilan muloqot.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axatov, S. A., & Akhmatkulov, U. M. (2021). Basics of pre-conscription military training subject. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 441-447.
2. Saidov, I. M., Axmatqulov, U. M., & Abdullayev, B. T. (2020). OMMAVIY VA INTERNET AXBOROT RESURLARINING YOSHLARDA VATANGA SODIQLIK TUYG'ULARINI SHAKLLANTIRISHDAGI BOG'LIQLIKLAR. *Academic research in educational sciences*, (4), 199-203.
3. Собиров, О. Ф., & Ахмадкулов, У. М. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ. *Мировая наука*, (11), 306-308.
4. Ахматкулов, У. М. (2022). ЁШЛАРНИ РУҲИЙ ВА ЖИСМОНАН ЕТУКЛИК ДАРАЖАСИНИ ШАКЛЛАНИШИГА ИЖТИМОИЙ МУҲИТ ВА ТАРБИЯ УСЛУБЛАРИНИ ТАЪМИНЛАШ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 161-164.
5. Махамадjonovich, A. U. (2022). IJTIMOIIY HOLAT VA TA'LIM-TARBIYANING VATANPARVARLIK XISSIIYOTLARINI SHAKLLANISHIDAGI ANAMIYATINI BAHOLASH. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 171-177.
6. Makhamadjonovich, A. U., Shukorovich, I. J., & Bahodirovich, Y. S. (2022). THE METHOD OF FORMING A SENSE OF LOYALTY TO THE HOMELAND IN YOUNG PEOPLE BEFORE THE DRAFT. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 184-189.
7. Ахматкулов, У., & Хамдамова, М. (2022). ЁШЛАРНИ VATANPARVARLIK РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ-ФУҚАРОЛИК ПОЗИЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АСОСИ СИФАТИДА. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(20), 115-118.



**TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA
INNOVATSION G'OYALAR**

